

Mamadaliyeva Gulzoda Saydullo qizi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri Behzod Fazliddinning ijodida ayol va ishq mavzulari aks tahlil qilinadi. Shoir asarlarida asosan ishq va ayol mavzulari asosiy o'rinni egallaydi. Undan tashqari hayot va o'lim, borliq va yo'qlik, ezgulik va yovuzlik, insoniylik va ruhiy kamolot kabi falsafiy tushunchalar qanday badiiy talqin etilgani o'rganiladi. Muallif ijodidagi ishqiy mushohadalar, ramziy obrazlar va falsafiy lirikaning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot davomida shoirning turli yillarda yozilgan she'rlari tahlil qilinib, ularning umumiy mazmuni va poetikasi yoritiladi.

Kalit so'zlar:

Behzod Fazliddin, ishq, ayol, muhabbat, falsafiy lirika, adabiy tahlil, badiiy obraz, hayot va o'lim, insoniylik, ramziy ifoda, ruhiy kamolot.

Poetik obraz ko'pincha ramziy va timsoliy mazmun kasb etib, xalq tasavvurlarida chuqur ildiz otgan tushunchalarga asoslanadi. Xususan, ayol va Vatan obrazlari she'riyatda eng muhim poetik timsollardan sanaladi. Ayol – go'zallik, mehr-oqibat, sadoqat va ilhom manbai sifatida she'riy tafakkurda betakror talqin qilinadi. U nafaqat ona, yor yoki farzand sifatida, balki jamiyatning hayotbaxsh kuchi, fidoyilik va bardavomlik timsoli sifatida ham gavdalanadi. Shu bois adabiyotning turli davrlarida ayol siymosi she'riy tasvirning markazida bo'lib kelgan.

Vatan obrazi esa shoirning yurak nidosi, orzu-intilishlari va fidoyilik ruhining ifodasidir. Vatan shoir qalbida ona bilan yonma-yon turadi, u mehr-muhabbat, fidokorlik va sadoqatning oliy timsoli sifatida tasvirlanadi. She'riyatda Vatan gohida ona siymosida, gohida esa mahbuba qiyofasida gavdalanib, shoirning unga bo'lgan muhabbati va sadoqati yorqin badiiy ifodasini topadi.

Mazkur ishda poetik obraz tushunchasi, uning she'riyatdagi badiiy talqini, xususan, ayol va Vatan obrazlarining poetik tafakkurdagi o'rni va talqini tahlil etiladi. Shoir Behzod Fazliddinning she'riyatida bu obrazlar qanday ifodalangani, ularning badiiy-estetik xususiyatlari va ramziy talqinlari tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi.

Adabiyot har bir davrning ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi ko'zgudir. Har bir shoir o'z zamonining dardi, iztirobi, orzu-umidlarini she'riyat vositasida ifoda etadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zbek she'riyatida yangicha ruh, badiiy tafakkur va estetik yondashuvlar sezilarli darajada shakllandi. Ushbu jarayonda yosh iste'dodli shoirlarning ijodi alohida ahamiyat kasb etdi.

Behzod Fazliddin o'zbek she'riyatida o'ziga xos uslub va badiiy tafakkurga ega shoirlardan biri sifatida tanildi. Uning she'rlari zamonaviylik va milliylik uyg'unligi, falsafiy mushohadalarga boyligi, ichki ruhiy holatlarning nozik tasviri bilan ajralib turadi. Shoir she'riyatining badiiy xususiyatlarini o'rganish bugungi adabiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishda Behzod Fazliddin she'riyatining badiiy xususiyatlari tahlil qilinib, uning poetik olami, obrazlar tizimi, til va uslub xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shoirning ijodiy yo'nalishini chuqur anglashga xizmat qiladi va zamonaviy o'zbek she'riyatining rivojlanish tendensiyalarini yoritishga hissa qo'shadi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

Muqaddas zamin”(1999), “Bog’laringdan ketmasin bahor”(2000), “Onamning ko’ngliga ketamiz”(2003), “Sen qachon gullaysan”(2008),”Kutmagan kunlarim, kutgan kunlarim”(2012), “Tushlaringdan chiqib keldim”(2017) nomli she’riy to’plami, qator badiiy-publitsistik, ilmiy-adabiy maqolalari chop etilgan. She’rlari bir necha tillarga tarjima qilingan.

Ijodkorning she’rlarida ustuvor mavzulardan biri muhabbat mavzusi hisoblanadi.

O’t ichida yashash osonmi, Jonim,

Nechuksiz joningiz omonmi, Jonim,

Ayirib qo’yishdi yo’llarimizni,

Odamlar shunchalik yomonmi, Jonim?¹

“Jonim” deya juda go’zal bir sarlavha tanlangan ushbu she’rda ijodkor yorini faqat bosh harflar bilan “Jonim” deya chaqiradi. Yuqoridagi baytning birinchi misrasida olov ichida yashamoqlik qanchalik qiyin ekanligi ritorik so’roq gap bilan beriladi. Ikkinchi misrasiga kelib esa lirik qahramon yorning hol-ahvolidan xabar oladi. Uchinchi va to’rtinchi misraga kelib esa yor va lirik qahramonning munosabatlari odamlar sababli buzilganini, odamlarning qanchalik yomon ekanligini ko’rishimiz mumkin.

Ko’ngilning yurtidan ketib bo’lmaydi.

Sinovsiz maqsadga yetib bo’lmaydi.

Axir muhabbatning ko’chalaridan

Yurakka tosh solib o’tib bo’lmaydi.²

She’rning ikkinchi baytining dastlabki misrasida inson faqat ko’ngil bilangina tirik ekanligini, qanchalik harakat qilmasin, inson o’zidan, o’zligidan hech qachon keta olmasligini eslatib o’tadi. Ikkinchi misrada esa yana bir falsafiy haqiqatni yoritib o’tadi. Bu dunyoda bir haqiqat bor: sinov va mashaqqatlarsiz maqsadga yetishib bo’lmaydi. Baytning oxirgi misralarida esa muhabbat faqat yumshoq ko’ngil va muloyimlikni sevishini aytib o’tadi. Muhabbat yo’llarida biror narsaga ko’z yumib ketib bo’lmaydi. Muhabbat insonni yumshoqlikka, muloyimlikka chorlaydi.

Yer, Samo biz bilan qisinmaydilar.

O’tkinchi hislarga bo’ysunmaydilar.

Tushunib turibdi Xudoyim bizni,

Nega bandalari tushunmaydilar?!³

She’rning oxirgi baytiga kelib esa ijodkorning butun dard-u hasrati o’quvchiga namoyon bo’ladi. Lirik qahramon baytning dastlabki misrasida Yer va Samo biz bilan istihola qilmaydi, deya ulardan biroz xafa ham bo’ladi. Yer va Samo o’tkinchi hislarga bo’ysunmaydi. Bizni hatto olamlar Rabbisi tushunib turgan bir paytda bandalari tushunmay turibdi, deb chinakamiga xafa bo’ladi.

Odamlar shunchalik yomonmi, Jonim?⁴

She’r yuqoridagi misra bilan tugallanadi. Qaysidir ma’noda ushbu she’r Behzod Fazliddinning bugungi jamiyat insonlari haqiqiy tuyg’ularning qadriga yetmayotganligidan shikoyat qilgandek bo’ladi. Insoniyat rostdan ham munosib narsalarni qadrlashdan voz kechayotgandek go’yo.

Behzod Fazliddinning muhabbat talqin etilgan yana bir she’rini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Keragidan ortiq yig’laysiz-

Keragidan ortiq qiynayman.

¹ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2017. -B 57.

² Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2017. -B 57.

³ O’sha manba.

⁴ O’sha manba.

Xayolimga arqon bog'laysiz-

Keragidan ortiq o'ylayman.⁵

Yuqoridagi she'r "Kerakli odamga" deb nomlangan bo'lib, dastlabki misralardanoq lirik qahramon o'z aybini bo'yniga olgandek bo'ladi. Yorning juda ko'p yig'lashining sababi lirik qahramon juda ko'p qiynashi ekanligini aytadi. She'ning oxirgi misralariga kelib esa lirik qahramon yorni sevishini, uni ham keragidan ortiq darajada o'ylashini aytib o'tadi.

Azoblarim mening bari – sir,

Siz uxlaysiz, siz bedaraksiz.

Jonim, hozir menga, baribir,

Keragidan ortiq keraksiz.⁶

She'r sakkiz misradan iborat hisoblanadi. She'ning ikkinchi baytida esa lirik qahramonning yorga nisbatan barcha his-tuyg'ulari ko'rinib qoladi. Lirik qahramon ham yorni undan kam sevmaydi. She'ning ikkinchi baytida ijodkorning sevgiga javobi juda go'zal bir tarzda ko'rsatib beradi.

Behzod Fazliddin shunday bir falsafiy ijodkorki, uning ijodi falsafiy mazmunga, mushohadaga juda boy. Uning asarlari misralarini qayta-qayta o'qisa, shuncha ma'no chiqib kelaveradi. Behzod Fazliddin asarlarini o'qish, uqish, o'rganish lozim.

Endi esa Behzod Fazliddinning "Sizni yaratgandan meni qizg'onmang" nomli she'rining tahliliga to'xtalamiz.

Sizni yaratgandan meni qizg'onmang,

Keling, ul Yaktoni sevaylik birga.

Behuda o'rtanmang, bekorga yonmang,

Aziz umrimizni o'raylik nurga.⁷

Yuqoridagi bayt orqali ijodkor juda bir muhim bo'lgan mavzuni ko'taradi. Barchamizni bitta Zot yaratgan degan bir fikrni ilgari suradi. Ul Zotni birgalikda sevaylik va uning e'tiqodida mahkam turaylik degan bir g'oyani ilgari suradi. Har qanday rashk va ginalarda yonmasdan bu aziz umrni shunday go'zal bir nurlarga o'raylik deb fikr bildiradi.

Borligingiz- xasta ruhimga dalda,

Hamma suygan yordan rashk qilmak...Nega?

Axir o'zingiz ham bilmagan holda,

Xudoni eslatib turasiz menga.⁸

Shoir ushbu misralarda o'z yoriga eng yoqimli dil izhorlarini aytadi. Yorning borligi uning ruhiga haqiqiy dalda ekanligini, yorsiz uning ko'ngli xasta ekanligini aytadi. Barchani yaratgan va barcha suygan yordan rashk qilish ozgina mantiqsizlik hisoblanishini e'tirof etadi. Ijodkor eng go'zal gaplarini baytning oxirgi ikki misrasida aks etgan edi. Mana shu ijodkorning suyukli yori Allohni eslatib turishini aytadi. Bu go'zal yondashuvlar bizga ishq odatda ikki xil bo'lishini, majoziy ishq va

⁵ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 72.

⁶ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 72.

⁷ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 75.

⁸ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 75.

haqiqiy ishqqa bo'linishini eslatadi. Yorni sevish majoziy ishqqa kirishini hisobga olsak, u keyinchalik haqiqiy ishqqa yetaklashini nazarda tutadi.

Loyimni pishirib borar olovlar,

Barcha yulduzlarga o'zim boshliqman.

Aqlidan ayrilib suysa bировlar,

Men sevib aqlini topgan oshiqman.⁹

She'ning yuqoridagi misralarida esa ijodkorning hayoti davomida ko'rgan qiyinchiliklari ijodkorni borgan sari pishirib borayotganligi e'tirof etiladi. She'ning ikkinchi misrasida esa ijodkor qaysidir ma'noda barcha yulduzlarga boshliq ekanligini aytadi va faxrlangandek bo'ladi. Kimdirlar o'z aqlidan ayrilgudek darajada sevsa, ijodkor esa sevganidan keyin haqiqiy aqli kirganligini aytadi.

Bizni yaratgandan meni qizg'anmang,

Oy ul yor ishqida sarxush falakda.

Behuda o'rtanmang, bekorga yonmang,

Asraylik, asraylik Uni yurakda.¹⁰

Oldingi misralarda "Sizni yaratgandan meni qizg'anmang" deya yozg'irayotgan bo'lsa, she'ning oxirgi baytlariga kelib "Bizni yaratgandan meni qizg'anmang" deb umumiyroq fikrga keladi. Hatto osmondagi oy ham uning ishqida sarxush suzadi degan go'zal tashbehni ilgari suradi. Bekordan bekorga o'rtanib, yonib yurmasdan Uni faqatgina yurakda asrash lozimligini aytadi. She'ning oxirgi misrasi "Asraylik, asraylik uni yurakda" deya yakunlanadi.

Quyida Behzod Fazliddinning "Noma" she'rida ham ishq mavzusini ko'rishimiz mumkin.

Nastarin gullari mushtoq xatimga...

Yodingiz bag'rida tunlarim oqdir.

Qaysi xizmatimga, qay zahmatimga

Meni zulfingizga bog'lamish taqdir.¹¹

She'ning dastlabki baytining dastlabki misrasida ijodkor o'zining xatlarini hatto nastarin gullari ham kutayotganligini eslatib o'tish bilan boshlaydi. Ikkinchi misrasiga kelib esa yorning yodi sababli qaro tunlar ham oq rangga burkanishini aytib o'tadi. Baytning uchinchi va to'rtinchi misrasida esa ijodkor qaysi xizmatiga yoki qaysi zahmatiga yarasha bu yorga loyiq ko'rildim, deya juda go'zal bir tarzda o'z fikrlarini ifodalagan. Bu ta'rifni "zulfingizga bog'lamoq" bilan ifodalagan.

G'uborlar tekizmay xayolingizga,

Hayoni nariga quvmay sevaman.

Yuragimni tugib ro'molingizga,

Siz aytmay sevasiz," sevmay" sevasiz.¹²

Garchi Behzod Fazliddin lirik qahramoni ma'shuqani sevsada, uning xayollariga xiyonat qilmagan holatda hayo bilan sevadi. Ijodkor mana shuni go'zal bir tarzda ifodalab boradi. Baytning oxirgi ikki misrasida esa lirik qahramon butun sevgi izhorini ommaga ko'rsatadi.

⁹ O'sha manba.

¹⁰ O'sha manba.

¹¹ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 81.

¹² Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 81.

“Qo’shiq” she’rida esa lirik qahramon hayot, ishq va dard haqida chuqur falsafiy o’ylar yuritadi. She’rda insonning hayotiy tajribasi, iztiroblari va ishqning ilohiy qudrati haqida mulohaza qilinadi.

Men hayotni siylov debman,
Sinov ekan, sinov ekan.

Tangrim menga ishq deb bergan

Olov ekan, olov ekan.¹³

Lirik qahramon hayotni dastlab siylov deb o’ylaganini, ammo aslida hayotning sinov ekanini tushunganini aytadi. Tangri tomonidan berilgan ishqni olovga qiyoslaydi. Bu olov qahramonni kuydiruvchi, uni sinovdan o’tkazuvchi kuch ekanini bildiradi.

Umrimdan ham uzun-uzun

Armonlarim, armonlarim.

O’zimdanda ham mahzun-mahzun

Osmonlarim, osmonlarim.¹⁴

Bu bandda lirik qahramon o’zining hayotida qolgan armonlarini ta’kidlaydi. Armonlari uning umri davomida ortib borgan, hatto o’zidan ham uzoq va kuchli ekanini his qiladi. Qahramonning "mahzun osmonlar"i ichki tushkunlik va hayotdagi qayg’uni aks ettiradi.

Endi qachon yondiradi

Ko’zlarimning yoniqlari?

Yuragimni sindiradi

Peshonamning siniqlari.¹⁵

Qahramon, ko’zlaridagi “yoniqlari”ni, ya’ni qalbidagi azob va alamni ifodalaydi. Peshonasidagi siniqlar esa uning hayotdagi ko’p sinovlardan o’tganini ko’rsatadi. Bu band qahramonning o’z qismatini, hayotidagi mashaqqatlarni anglayotganini bildiradi.

Dardlarimni ko’zimga qul

Yoshlar aytsin, yoshlar aytsin.

Boshim tegib yorilgan ul

Toshlar aytsin, toshlar aytsin.¹⁶

Lirik qahramon dardlarini ko’z yoshlari orqali ifoda etadi. Qahramonning boshiga tegib, uni sinovdan o’tkazgan “toshlar” uning hayotidagi azob va qiyinchiliklarni bildiradi. Bu band, qahramonning iztirobli ichki kechinmalarini kuchli tasvirlaydi.

Men bir qo’shiq kuylar bo’lsam,

¹³ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2017. -B 68.

¹⁴ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2017. -B 68.

¹⁵ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2017. -B 68.

¹⁶ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2017. -B 68.

Ko'ngil – hofiz, vujud – mashshoq.

Ishq haqida so'ylar bo'lsam,
O'zim ojiz, so'zim qashshoq.¹⁷

Qahramon, agar ishq haqida kuylashni istasa, o'zini ojiz va qashshoq his qilishini aytadi. Bu so'zlar orqali ishqning buyuk qudrati va uning oldida insonning ojizligini ifodalaydi. Bu band qahramonning ishqsiz yashashni betayin deb hisoblashini ko'rsatadi.

Dil, o'zingni o'tlarga ot,
Uyg'on endi, uyg'on endi.
Menim uchun Ishqsiz hayot
Yolg'on endi, yolg'on endi.¹⁸

Bu bandda qahramon o'z dilini "o'tlarga ot"ishga, yani ishq oloviga tashlashga undaydi. U ishqsiz hayot yolg'on ekanini anglagan va endi ishqning haqiqiylikini tan olishga tayyor. Bu band qahramonning o'z yo'lini anglab yetganini ifodalaydi.

Mayli, jonim azob so'rsin,
Qilgin ado, qilgin ado.
O'lar bo'lsam, ishq o'ldirsin,
Ishq ber, Xudo! Ishq ber, Xudo!¹⁹

She'r yakunida qahramon Xudodan ishq so'raydi. U jonini azob va ado qilishga tayyorligini, lekin ishqsiz yashay olmasligini aytadi. "O'lar bo'lsam, ishq o'ldirsin" degan satrlar ishqqa bo'lgan chuqur ehtirom va fidoyilikni ifodalaydi.

Ushbu she'r inson qalbidagi ishq va dardning chuqur tasviri hisoblanadi. Lirik qahramon hayot va ishqning ma'nosini topishga intilib, azob va sinovlarga ro'para keladi. She'r ishqning inson hayotidagi katta o'rni va uning ilohiy qudratini ulug'laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
2. <http://qr.natlib.uz> — QR-kodli darslik, o'quv qo'llanma va badiiy adabiyotlar.
3. https://t.me/Behzod_Fazliddin
4. Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017.
5. Behzod Fazliddin. Kutmagan kunlarim, kutgan kunlarim.-Toshkent: "Akademnashr",2012.
6. Behzod Fazliddin. Onamning ko'ngliga ketamiz-Toshkent:,2003.

¹⁷ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 68.

¹⁸ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 68.

¹⁹ Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2017. -B 68.